

Chet tillarni o'qitishda o'yin va interfaol usullaridan foydalanish

Karaboshev Bahrom Keldiyorovich
karaboshevbahrom@gmail.com

O'qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: So'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, turli xil o'quvchini jalb qiluvchi, interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Dars davomida bunday o'yinlardan foydalanish o'quvchining fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Ushbu maqolada xorijiy tillarini o'yinlar orqali o'rganish metodlari yoritib berilgan. Shuningdek tilni rivojlantirishda yangi metodlardan misollar keltirilib, uning ahamiyati ochib beriladi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, tillarni nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham o'rgatilmoqda. Darslarda o'ziga xos usullar, qiziqarli metodlar bilan o'tilmasa, o'quvchilarni darsga jalb qilish biroz murakkab vazifaga aylanishi mumkin. agarda darslarda an'anaviy usullardan kechilsa, qiziqarli qilib olib borilsa bu nafaqat dars sifatini ta'minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, passiv o'quvchilarni ham darsda ishtirok etishga jalb qiladi.

Kalit so'zlar: chet tili, interfaol o'yinlar, texnik vositalar, didaktik o'yinlar, Rolli o'yinlar uslubi, o'yinli grammatika, Taboo words (ta'qiqlangan so'zlar), Pictionary (so'zli o'yin).

Use of game-based and interactive methods in foreign language teaching

Karaboshev Bakhrom Keldiyorovich
karaboshevbahrom@gmail.com

Teacher
Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. In recent years, the emphasis on the study and teaching of foreign languages has increased significantly. This is done to make foreign language lessons, especially English, more interesting, that is, using a variety of innovative methods, techniques and interactive games that challenge a wide variety of students. Using these games throughout the lesson further enhances students' interest in learning the subject. This article describes techniques for learning foreign languages through games. Additionally, new methods for language development are exemplified, and their significance is explained. Since learning foreign languages is of great importance today, languages are taught not only in higher education institutions and schools but also in preschool institutions. If lessons are not conducted using unique methods and engaging techniques, attracting students to the lesson may become a challenging task. If traditional teaching methods are abandoned and lessons are conducted in an engaging manner, it will not only ensure the quality of education but also prevent boredom and encourage passive students to participate in the lesson.

Keywords: foreign language, interactive games, technical means, didactic games, role-playing style, game grammar, taboo words (forbidden words), Pictionary game).

Использование игровых и интерактивных методов в преподавании иностранных языков

Карабошев Бахром Келдиярович
karaboshevbahrom@gmail.com
Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация. В последние годы значительно возросло внимание к изучению и преподаванию иностранных языков. Это, в свою очередь, требует проведения уроков иностранных языков, особенно английского, в интересной форме, используя различные инновационные методы, технические средства, а также интерактивные игры, привлекающие учащихся. Использование таких игр в процессе обучения способствует повышению интереса учеников к изучаемому предмету. В данной статье рассматриваются методы изучения иностранных языков посредством игр. Кроме того, приводятся примеры новых методов развития языка и раскрывается их значимость. Поскольку в настоящее время изучение иностранных языков приобретает большое значение, языки преподаются не только в высших учебных заведениях и школах, но и в дошкольных учреждениях. Если уроки не проводятся с использованием уникальных методов и интересных технологий, привлечение учащихся к занятиям может стать сложной задачей. Если отказаться от традиционных методов обучения и проводить уроки в увлекательной форме, это не только повысит качество обучения, но и предотвратит скуку, а также привлечет к занятиям пассивных учеников.

Ключевые слова: иностранный язык, интерактивные игры, технические средства, дидактические игры, ролевой стиль, игровая грамматика, запретные слова, игра *Pictionary*.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, tillarni nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham o'rgatilmoqda. Darslarda o'ziga xos usullar, qiziqarli metodlar bilan o'tilmasa, o'quvchilarni darsga jalb qilish biroz murakkab vazifaga aylanishi mumkin. agarda darslarda an'anaviy usullardan kechilsa, qiziqarli qilib olib borilsa bu nafaqat dars sifatini ta'minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, passiv o'quvchilarni ham darsda ishtirok etishga jalb qiladi. Ingliz va nemis tilini o'rgatish jarayonida bir qator qiziqarli o'yinlar mavjud. Shuni aytib o'tish joizki, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan oydan oydalanish kerakki, unda barcha o'quvchilar birdek ishtirok etishsin hamda darsdan yangilik olishsin. O'quvchilarga darsni grammatik tushunchalar bilan boshlash noo'rindir, ayniqsa kichik sinf o'quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo'ladi. Natijada darsga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin. Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham no'anaviy tarzda boshlash kerak, masalan, o'qituvchi kirishi bilan darsni qandaydir salomlashishga oid inglizcha qo'shiq bilan boshlash (asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mativatsion usuldir) usuli samarali usuldir. Shu tariqa dars davom etsa, o'quvchilar dars davomida ha bir topshiriqqa bo'lgan e'tiborini yo'qotishmaydi. Xattoki ular ingliz tili darslarini intizorlik bilan kutishadigan bo'lishadi. albatta, bularning barchasini o'qituvchi tashkillashtirishi kerak va bu pedagogning zimmasida. Shunday ekan chet tilini o'rganishni qiziqarli qilish uchun ba'zi o'yin turlarini keltirib o'tish mumkin.

Nemis tili darslarida o'yinlar odatda, dars yakuniga hali bir necha daqiqa qolgan bo'lsa, bo'shliqni to'ldirish uchun ishlatiladi. ammo chet tilini o'rganish birinchi navbatda, mashg'ulot bo'lib, unda mashq shakli sifatida o'ynash katta ahamiyatga ega. O'rganilgan materialni mashq qilish va qo'llash asosiy muammolardan biridir. Chet tilini o'rgatishda gap, faqat o'rganilayotgan tilni bilish emas, balki undan yetarlicha foydalana olishdir. Gans Aebli aytganidek, "Mashq qilish-takrorlash demakdir". (Aebli, 2007)

Unutishga qarshi kurashish kerak, o'rganilgan narsalarni mustahkamlash va uni avtomatlashtirish kerak. agar yozma mashqlar o'quvchi uchun zerikarli bo'lsa, unda hilma-hil amaliy mashqlarni qo'llash kerak. Buning uchun mashqlarning turli va rag'batlantiruvchi shakllaridan foydalanish zarurdir. Ta'lim o'yinlari bu yerda muhim qo'shimcha hisoblanadi. Chet tilini o'rganishda har bir metod muhim ahamiyatga egadir: xotira o'yinlaridan tortib keng ko'lamli ro'lli o'yinlargacha. Ushbu o'yinlar va viktorinalar bilan o'ynab va zavq bilan nemis tilini

o'rganamiz.(Usmonova,2007)

Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki oqituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. Nemis tili fanidan mashg'ulotlarni olib borishda pedagog xodimlarning ixtisosi, bilimi va ko'nikmalari, kasbiy mahirat darajasi, dunyoqarashi, shaxsiy psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, innovasion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy dars berishning asoslarini yaratishdek ulkan pedagogik g'oyalarga zamin bo'lishi mumkin. Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi usullar qo'llanilmoqda: "Klaster", "aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin", "Press usuli", "BBB",

"Orfografik estafeta", "6x6x6", "Yumaloqlangan hor", "Sinkveyn", "Zigzag", "Yozma bahslar", "Qarorlar shajarasi", "Baholovchi munozara", "Oxirgi so'zni menga bering", "Modelli dars", "Yakun chiqaruvchi plakat", "Yelpig'ich", "Charxpalak", "Fikrlovchi qalpoqcha", "Mendan faxrlanaman" kabi. Nemis tili darsida interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi.

Ingliz va nemis tillari darslarining samaradorligini oshirish uchun „**Rolli o'yinlari**” dan foydalanish mumkin. Bu o'yinning afzallik tomonlari shundaki, bu vaziyatdan kelib chiqib o'ynaladi. Bu o'yin nafaqat fan o'rganilishi uchun foydali, shu bilan birga aqliy qobiliyatni shakllantirishga ham yordam beradi. Bu o'yinda mavzular tanlab olinib, bolalar dialoglar tashkil qilishadi. Masalan, yo'lovchining taksini to'xtatgan jarayonidagi suhbat, yoki kiyim do'konlaridagi muloqotlar - bularning barchasini ingliz tilida ham gapirib, ham ko'rsatib berishadi. aynan shu o'yinda, guruh bilan ishlash taktikasini qo'llasak ham bo'ladi, ya'ni o'quvchilarni guruhlariga ajratib turli mavzularni bo'lib berish. Bu holatda raqobatlashuv ham vujudaga keladi. Raqobat-yuksalish mezonidir. Topshiriqni yaxshi bajargan guruh rag'batlantirilsa, qolgan o'quvchilarning intilishi ham kuchayadi. Bundan tashqari, ingliz tili darslarini mazmunli o'tkazish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. (Hayles, 2005)

Object- bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, chet tili fanlarini o'rganishdagi eng muhim yo'nalish bu yangi so'zlarni yod olishdir. O'quvchilarning xarakterlarini hisobga olsak, har bir o'quvchi o'z usulida lug'at yodlaydi. Shunga ishonchimiz komilki, o'yinlar orqali yangi so'zlarni yodlash hammaga mos keladi va bu jarayonni yengillashtiradi. Yuqorida aytib o'tgan o'yinimizda, dars paytida sinf xonadagi 15 ta buyum stol ustiga qo'yiladi va o'quvchilar kelib bu buyumlarni ko'zdan kechirishadi. Buyumlarning usti yopib qo'yiladi va so'ngra o'quvchilar ko'rgan narsalarini, ma'lum vaqt davomida inglizchasini doskaga yozishlari kerak. Eng ko'p so'zni to'g'ri yoza olgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Shu o'yinning sifatini ta'minlash maqsadida shuni ayta olamanki, shu vaziyatning o'zida qolgan, ishtirok etmagan o'quvchilarni ham darsga jalb qilish uchun, ularga shu buyum nomlariga bittadan gap tuzish toshirig'i berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va bu befarqlikning oldini ham oladi.

Pictionary - ko'pchilik ingliz tili fanini o'rgatuvchi va o'rganuvchilar uchun bu o'yin tanishdir, ya'ni o'z nomi bilan so'z o'yini va unda rasm chiziladi. Bu o'yinda rasm chizish uchun oddiy doskadan yoki magnit doskadan foydalanish mumkin. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadilar va har bir jamoa uchun doskaning ikki tarafiga jadval chiziladi. Jamoalarning ballari shu jadvallarga yozib boriladi. Parta ustiga so'z nomlari yozib qo'yiladi va teskari qilib o'g'iriladi. Har bir guruhdan o'quvchilar navbatma-navbat chiqib, yashiringan so'zlar orasidan birini tanlab, doskaga chizib beradi. Qaysi jamoa birinchi topsa shu jamoaga ball beriladi. Bu o'yin ham o'quvchilar zehniini charxlaydi. Shuni ham ayta olamizki, rasmlardan foydalanish - o'quvchilarni tez jalb qiluvchi taktikadir, ayniqsa, u o'quvchilarning o'zi tomonidan yaratilsa.

Taboo words o'yini (Ta'qiqlangan so'zlar) - bu qiziqarli o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so'zlashuvning chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar,

gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyotkor bo'lishga yordam beradi. Bunda guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqla o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqla o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni aytirish uchun biroz vaqt bo'ladi.

Tennis o'yini - bu o'yinning maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlangan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytilishi kerak, masalan mavzu nomi „Animals” bo'lsa, mavzudan chetlashmagan holda „Tiger” so'zi bilan boshlansa, ikkinchi ishtirokchi „rabbit” deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi 5 daqiqa davomida javob bera olmasa o'yindan chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar bilan davom ettiriladi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o'yinni mavzuni o'zgartirish orqali ham o'ynash mumkin. Shu bilan birga, o'yinlarni tashkil etish jarayonida, ularni turli texnik vositalar bilan bog'lab o'tish ham qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda barcha yoshlar, o'smirlar va kattalar ham zamonaviy texnologiyalarga befarq emas. Shunday ekan, qiziqarli fan o'yinlari kompyuterlarda tashkil qilinishi orqali samarali natijaga erishish mumkin. Darhaqiqat, dars berishda grammatik tushunchalar ham o'rgatiladi, chunki o'qituvchilarning dars rejalarida bu ko'rsatilgan. ammo, bu jarayonni osonlashtirish va qiziqarli o'tkazish uchun ham o'yin mavjud. Masalan mavzu so'z turkumlari. Ular so'z turkumlarini yaxshi o'rganishlari va bir-biridan ajrata olishi kerak. O'quvchilarga ingliz tilida musiqa qo'yib berilib qo'shiq ichidan tinglash paytida faqat ot so'z turkumiga oid so'zlarni yozish topshirig'i berilishi va keying o'quvchiga boshqa so'z turkumi berilishi mumkin. Shunday qilib mavzu mustahkamlanadi, bu usulni boshqa mavzularni o'tish jarayonida ham qo'llash mumkin. Buni o'quvchilar uchun madaniy hordiq sifatida tashkillashtirish ham mumkin. (Sandford, 2011)

O'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirishimiz mumkin. Ushbu yuqorida keltirilga o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmunli tashkil qilishdir. Bugungi kunda ta'lim jarayoni asosan an'anaviy tarzda olib borilayotgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzluksiz o'rganishni tashki qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyalari bilan ta'lim berishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni shu o'rganayotgan tillarining mutaxasisi bulishi va buning negzida ular shu tillarda bimalol so'zlash olishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, barchasi yoshlarimizning buyuk kelajagi, yurtimiz ravnaqi uchundir. (Abdiyev, 2015)

Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiya larini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborotkommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamo naviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l ke ladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaf fuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot – kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiya lardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video rolidlarni,

namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rish ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zahirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bema'lol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir.

Chet tillarni o'qitish metodikasida o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishi, "ularning turli tadbirlarda real ishtirok etishi" masalasi tobora keskinlashib bormoqda. Buning sababi, chet tilini o'rganishning asosiy vazifasi - ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish qobiliyati - maktabda ko'pincha erishilmaydi. O'quvchilarning chet tilini o'rganishga yetarlicha ishtiyoqi va qiziqishi yo'qligining bir qancha sabablari borki, har bir o'qituvchining vazifasi "o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini doimo saqlab turish va oshirish"dir. Maktab o'quvchilarining e'tiborini jalb qilish usullaridan biri o'qitishning nostandart shakllari - ular "o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, fanga qiziqishini oshiradi va materialni yaxshiroq o'zlashtirishga hissa qo'shadi". Darsning nostandart shakllariga ekskursiya darslari, tematik darslar, didaktik o'yinlar va, albatta, guruhlarda ishlash kiradi. Bu erda tobora ommalashib borayotgan til o'rgatishning faol usullari muhim o'rin tutadi. Faol o'qitish usullari - "o'quvchilarni o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida faol fikrlash va amaliyotga undaydigan" usullardir. N.M.Kleymenova ta'kidlaydiki, "empirik yo'l bilan olingan bilim eng chuqur va chuqurdir". Demak, chet tilini o'rgatish samarali bo'lishi uchun darsni boshqacha tashkil etish, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish, eng muhimi, tilni mustaqil o'rganishga undash zarurligi ko'rinib turibdi. (Kleymenova, 2000)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot mavzusi bo'yicha nashrlarni o'rganar ekan, shuni ta'kidlash mumkinki, maktab o'qituvchilari faol o'qitish usullarini e'tibordan chetda qoldirmaydilar va ularni o'quvchilar bilan darslarida tatbiq etishga harakat qiladilar. N. M. Kleimenova, S. S. Kuklina va E. L. Berdnikova, E. A. Pavlova, A. Yu. Yusupovalar o'z maqolalarida o'rganishga faoliyatga asoslangan yondashuvning ahamiyatini qayd etadilar va o'qituvchi o'z darsini faol o'qitish usullaridan foydalangan holda qurishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillarni ta'kidlaydi. Shu bilan birga, N. M. Kleimenova va E. L. Berdnikovalar faol o'qitish usullarining o'ziga xos tasniflarini beradilar. Ko'pgina o'qituvchilar,,,,, turli mavzularda o'z qo'llari bilan ishlab chiqqan darslarni taqdim etadilar, ko'pchilik ma'lum o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'zlarining tajribalari haqida yozadilar. Masalan, I.I.Petrichuk o'zining ingliz tili darslari doirasida turli loyihalardan foydalanish bo'yicha ko'p yillik tajribasini va o'z darslarida M.P. texnologiyasini tasvirlaydi. Z.M. Davydova o'yinni chet tillarini o'rgatish usuli, M. A. Ariyan esa chet tilida rolga asoslangan muloqot deb hisoblaydi. Demak, ko'ramizki, loyiha va rolli o'yinlar texnologiyasi atroflicha ko'rib chiqiladi, munozara esa darsda ham ko'p qo'llanilsa-da, har tomonlama tahlil qilinmasdan, faqat asarlarda tilga olinadi.

Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki oqituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. Nemis tili fanidan mashg'ulotlarni olib borishda pedagog xodimlarning ixtisosi, bilimi va ko'nikmalari, kasbiy mahirat darajasi, dunyoqarashi, shaxsiy psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, innovasion

texnologiyalardan foydalanish zamonaviy dars berishning asoslarini yaratishdek ulkan pedagogik g'oyalarga zamin bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi usullar qo'llanilmoqda: "Klaster", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin", "Press usuli", "BBB", "Orfografik estafeta", "6x6x6", "Yumaloqlangan hor", "Sinkveyn", "Zigzag", "Yozma bahslar", "Qarorlar shajarasi", "Baholovchi munozara", "Oxirgi so'zni menga bering", "Modelli dars", "Yakun chiqaruvchi plakat", "Yelpig'ich", "Charxpalak", "Fikrlovchi qalpoqcha", "Mendan faxrlanaman" kabi. Nemis tili darsida interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi, muammo o'zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o'rtasi bo'lib, bunda muammoning dolzarbligi va o'ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg'ulotda o'qituvchi ishtirokchilarni guruhlariga ajratib, darsni o'tkazish tartib-qoidalarini va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi. Ishtirokchilar dars davomida yakka, juftlikda va kichik guruhda faoliyat olib borishlari tushuntiriladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va bosqichlar ketma-ketligi:

- o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish;
- mavzular matnini guruh ishtirokchilariga tarqatish;
- tanlangan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish;
- shu muammoning kelib chiqish sabablarini o'zaro o'rganish va bir to'xtamga kelish;
- muammoning yechim yo'llarini ishlab chiqish;
- bajarilgan ishni o'zaro guruhda ko'rib chiqish va taqdimot qilish uchun tayyorlash;
- guruhlar taqdimotini o'tkazish;
- yondosh guruhlarining bajargan ishlarini tahlil qilish va munosabat bildirish;
- muammoli ta'lim texnologiyasi bo'yicha umumiy xulosa chiqarish.

Turli o'quv fanlari bo'yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutish.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

-o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

-bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

-hal etish uchun yetarli bo'lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari: -o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

-o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar. Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar: -muammoni turli nuqtai- nazardan o'rganish, tahlil qilish; -solishtirish, umumlashtirish; -faktlarni aniqlash va qiyoslash; -vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish; -o'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar. Bu amaliy mashg'ulotda tinglovchilar quyidagi vazifalarni bajarishlari tavsiya qilinadi:

- O'qituvchilar o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlangan mavzuda darsni eng maqsadga muvofiq muammoli o'qitish turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlaydilar va uning asosida guruh ishtirokida shu mashg'ulotni qisqa bayon qilib beradilar va tegishli muhokama o'tkaziladi.

- Bunda o'quvchilarning quyidagi masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma malakalarini yanada mustahkamlash nazarda tutiladi:

- O'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash, ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish. Zarur o'quv vositalarini tayyorlash. Muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish, topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonova.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari,-T: "akademiya", 2007y.
2. Abdiyev Sh. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Uslubiy ko'rsatma.-VXTXQTMOI, Samarqand, 2015y.
3. [http : //library.ziyouet.uz/ru/book/download/13388](http://library.ziyouet.uz/ru/book/download/13388)
4. „Xalq ta'limi tizimida onlayn ta'lim berish faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"" qaror
5. Brandvik, M. L., & McKnight, K. S. The English Teacher's Survival Guide:Ready- To-Use Techniques and Materials for Grades 7-12. Jossey-Bass.
6. Sandford R, Ulicsak M, Facer K and Rudd T “ Using commercial off-the-shelf computer. games in formal education.” Retrived 28-10-2011 from http://www2.futurelab.org.uk/resources/documents/project_reports/teaching_with_games/TWG_report.pdf>, 2005. [5]
7. Harnad, S., Lancaster, J. B., & Steklis, H. D. “Induction, evaluation and accountability”, Origins and Evolution of Language and Speech. New York: New York academy of Sciences. 1976 [6]
8. Hayles, N. K. “Electronic Literature: New Horizons for the Literary” . Notre Dame: University 1.of Notre Dame Press, 2008. [7] Hayes, R. T. “The Effectiveness of Instuctional Games”. Naval air Warefare Center, Orlando, (November 2005). [8]